



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI



Eko-madaniyat va
ekologik savodxonlikni
rivojlantirish

Mavzu: Barqaror rivojlanish uchun ta'lim pedagogikasi

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarni kelajak uchun tayyorlash nafaqat bilim berish, balki ularda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish demakdir.



Asosiy tamoyillar

O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv

Barqaror rivojlanish pedagogikasi o'quvchilarni savol berishga, tahlil qilishga, tanqidiy fikrlashga va qaror qabul qilishga undaydi. Bu yondashuv o'qituvchiga yo'naltirilgan darslardan o'quvchiga yo'naltirilgan darslarga o'tishni nazarda tutadi.

- Faol o'rganish jarayonlari
- Muammoli vaziyatlarni hal qilish
- Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
- Hamkorlikda ishlash ko'nikmalari

Yodlab o'rganishdan birgalikda o'rganishga o'tish zamonaviy ta'imning asosiy talabi hisoblanadi.



BRM pedagogikasining xususiyatlari

Muammoli yondashuv

Barqaror rivojlanish pedagogikasi ko'pincha muammoga yoki joyga asoslangan bo'ladi. Ular tanqidiy fikrlashni, ijtimoiy muammolarni tahlil qilishni va mahalliy sharoitlarni baholashni rag'batlantiradi.

Qadriyatlarni muhokama qilish

Qadriyatlarni muhokama qilish, tahlil qilish va qo'llashni o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarda jamiyat a'zolari sifatida ijtimoiy adolatga intilish tuyg'usini rivojlantiradi.

Ijodiy faoliyat

Barqaror rivojlanish pedagogikasi ijodkorlikni rivojlantirish va muqobil kelajakni tasavvur qilish uchun san'at, drama, o'yinlar, musiqa, dizayn va rasm chizishdan foydalanadi.

Barqaror rivojlanishda
qoʻllaniladigan oʻqitish usullari

Simulyatsiyalar - samarali o'qitish vositasi

Simulyatsiya nima?

Bu o'qituvchi o'quvchilarning o'zaro munosabatini belgilaydigan o'qitish usulidir. o'quvchilar bu stsenariylarda ishtirok etib, ulardan ma'no chiqaradi.

Masalan, o'quvchilar kichik baliqchilar qishlog'ida yashayotganliklarini tasavvur qilib, baliq zaxiralarini qanday qilib barqaror boshqarishni o'rganishlari mumkin.

Simulyatsiyalar murakkab tushunchalarni soddalashtirib, haqiqatga yaqin vaziyat yaratadi va bu barcha o'quvchilarni darsga jalb qiladi.




Simulyatsiyalarning afzalliklari



Tenglikni ta'minlaydi

O'quvchilarni vizual, eshitish va harakatli (kinestetik) o'rganish usullariga jalb qilish orqali ta'limda tenglikni ta'minlaydi.



Haqiqiy muammolarga e'tibor qaratadi

Jamiyatlar duch keladigan real muammolarni ko'rib chiqishga yordam beradi va o'quv dasturiga dolzarblik beradi.



Yuqori darajadagi fikrlashni rivojlantiradi

Tanqidiy tahlil qilish, muammolarga yechim topish va qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni oshiradi.

Simulyatsiya orqali o'qitish bosqichlari

Akademik tushunchalarni o'rgatish

Simulyatsiya boshlanishidan oldin, unga oid asosiy akademik tushunchalarni o'rgatish.

Faoliyatni kuzatish

o'quvchilar simulyatsiya bilan shug'ullanayotganda ularni kuzatib borish va kerak bo'lganda yo'nalish berish.

Senariyni tushuntirish

Simulyatsiya kontekstini va uning qoidalarini aniq tushuntirish.

Tahlil va qayta ishlash

Simulyatsiyadan keyin uni tahlil qilish va o'rganilgan tushunchalar bilan bog'lash.

Qayta ishlash uchun asosiy savollar

- ① Siz nimani o'rgandingiz?
Bu o'quvchidan darsning asosiy mazmunini aytib berishni so'raydi.
- ② Bu simulyatsiya haqiqiy hayotga qanday o'xshaydi?
Bu o'quvchiga o'rganilgan bilimni amaliyotga bog'lashga yordam beradi.
- ③ Simulyatsiya real hayotdan nima bilan farq qiladi?
Bu savol real hayotning murakkabliklarini tushunishga undaydi.



Qayta ishlash jarayoni o'qituvchiga o'quvchilardagi noto'g'ri tushunchalarni tuzatish imkonini beradi.

Sinf muhokamalari va muammolarni tahlil qilish

Muloqotning ta'limiy ahamiyati

Ta'limda sinf muhokamalari va muammolarni tahlil qilish kabi usullar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni va barqarorlik tamoyillarini chuqur anglashni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Muloqot – ijtimoiy o'rganishning asosiy omillaridan biridir (Vygotsky, 1978).

Lev Vygotsky ta'lim psixologiyasi sohasida katta hissa qo'shgan. Uning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, insonlar bilimni yakka tartibda emas, balki ijtimoiy muloqot orqali o'zlashtiradi va rivojlantiradi.



Muloqot ko'nikmalari

Ko'nikma	Izoh
Faol tinglash	o'zaro fikr almashish va javob qaytarish uchun zarur
Bahs yuritish	Asosli qarama-qarshi fikr bildiradi
Fikrni asoslash	Dalillar va faktlar bilan fikrni himoya qilish
Xulosa chiqarish	Murosaga kelish, umumiy fikrga erishish

Bu kabi muhokamalar passiv o'rganishni faollikka aylantiradi, mustaqil fikrlovchi, savol beruvchi va yechim taklif qiluvchi shaxslar yetishtirishga yordam beradi.

Tizimli fikrlash tamoyillari



Sabab-oqibat zanjirini aniqlash

o'quvchilar muammolarni alohida elementlar sifatida emas, balki butun tizimning bir-biriga bog'liq qismlari sifatida ko'ra olish qobiliyatini rivojlantiradi.



Qarama-qarshi imkoniyatlar

bir qarorning bir sohaga foydali, boshqa sohaga zararli tomonlarini aniqlash. Masalan, yangi zavod qurilishi iqtisodiy foyda keltiradi, ammo ekologik zarar yetkazadi.



Sinergiya (ijobiy uyg'unlik)

Qarorlar natijasida bir vaqtning o'zida bir nechta ijobiy foyda hosil bo'lishi. Masalan, daraxt ekish loyihalari bir vaqtda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltiradi.

Muhokama jarayonining amaliy misoli

“Iqlim o‘zgarishi inson faoliyati natijasimi?” - muhokama

Sinf o‘quvchilari kichik guruhlariga bo‘linadi (4-6 o‘quvchidan).
Har bir guruhda o‘quvchilar quyidagi rollarni oladi:

- **Fikr bildiruvchi**
- **Dalil keltiruvchi**
- **Qarshi fikr bildiruvchi**
- **Xulosa qiluvchi**

Bu jarayonda o‘quvchilar o‘z fikrlarini bildirib, dalillar keltirib, murosaga kelishga harakat qiladi.



Formativ baholash ahamiyati



Black va Wiliam (1998) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta'limda formativ baholashning alohida ahamiyatini ko'rsatadi.

Formativ baholash faqat yakuniy natijani emas, balki o'quv jarayonining o'zini baholashdir. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchidan savollar so'rash, ularning fikrlarini qayta yo'naltirish orqali o'quvchilarning darajasini aniqlaydi.

- ① Formativ baholashning maqsadi – o'quvchilarning bilimlari va tushunchalarini real vaqtning o'zida aniqlash va zarur bo'lsa, darhol pedagogik tuzatishlar kiritishdir.

Muammolarni tahlil qilish usullari

Muammolarni tahlil qilishning afzalliklari



Tizimli yondashuv

Muammolarni alohida qismlar sifatida emas, balki umumiy tizimning bir qismi sifatida ko'rishni o'rgatadi. Masalan, qishloq xo'jaligidagi suv taqchilligi nafaqat tabiiy resurs, balki iqtisodiyot va jamiyat bilan ham bog'liqdir.



Mavzulararo bog'liqlik

Tabiiy va ijtimoiy fanlarni bog'lab turadi, bu esa o'quvchilarga turli sohalardagi tengsizliklarni tushunishga yordam beradi.



Mahalliy va global yechimlar

O'quvchilar o'z jamiyatlaridagi muammolarga yechim topishni o'rganish bilan birga, bu yechimlarning global oqibatlarini ham inobatga olishni o'rganadi.



Tanqidiy fikrlash

Yuqori darajadagi fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa ularga samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Sinergiya loyihalarining misollari

Loyiha	Ekologik foyda	Iqtisodiy foyda	Ijtimoiy foyda
Daraxt ekish loyihasi	Havo sifati yaxshilanadi, eroziya kamayadi	Mevali daraxt hosili qo‘shimcha daromad keltiradi	Mahallada yashil hudud paydo bo‘ladi
Chiqindilarni qayta ishlash markazi	Chiqindi miqdori kamayadi	Ikkilamchi xomashyo ishlab chiqarishga qaytariladi	Yangi ish o‘rinlari ochiladi
Velosiped yo‘llarini tashkil etish	Avtomobil chiqindilari kamayadi	Yoqilg‘i xarajatlari tejaladi	Sog‘lom turmush tarzi rag‘batlantiriladi

“YAFISH” usuli - o‘qitishda ijodiy yondashuv



Y - Yozish

o‘quvchilar berilgan savol yoki topshiriqqa qisqa, aniq javoblarini yozadilar. Har bir varaq (stiker)ga bitta fikr yoziladi.



I - Izohlash

o‘quvchilar yozilgan fikrlarini qisqacha asoslab, izohlab beradilar. Bu bosqichda mantiqiy fikrlash va dalillash ko‘nikmalari shakllanadi.



A - Aloqa o‘rnatish

o‘quvchilar yozgan fikrlarini doskaga yoki plakatga yopishtirish orqali jamoaviy “fikrlar xaritasi” hosil bo‘ladi.



F - Fikr almashish

Yozilgan fikrlar o‘quvchilar tomonidan o‘qib eshittiriladi va bir-birining g‘oyalari bilan tanishadilar.



SH - Shakllantirish

o‘qituvchi barcha fikrlarni umumlashtirib, asosiy tushunchalar va xulosalarni shakllantiradi. O‘quvchilar yakuniy bilimlarini mustahkamlaydilar.

Namunaviy dars rejasi: Gazeta maqolalarini tanqidiy o'qish



Asosiy maqsad

O'quvchilarni ekologik barqarorlik masalalari bo'yicha gazeta maqolalarini chuqur tahlil qilish, undagi dalillar, taxminlar va manipulyatsiyalarni aniqlab, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Dars xususiyatlari

- **Sinf darajasi:** boshlang'ich va 5-7-sinflar
- **Davomiyligi:** 45 daqiqa
- **Usul:** hamkorlikda o'qitish va muhokama

Dars materiallari va tayyorgarlik



Gazeta maqolalari

Mahalliy ekologik muammolar bo'yicha uchta turli maqola: chiqindilar muammosi, suv taqchilligi va havoning ifloslanishi mavzularida.



Guruhlarga bo'lish

Sinf 3 kishilik guruhlarga ajratiladi. Har bir o'quvchiga alohida maqola beriladi va ekspert guruhlarini tashkil etiladi.



Ekologik tushunchalar

Barqaror rivojlanish, ekologik muammolar, atrof-muhitni muhofaza qilish va tanqidiy tahlil qilish asosiy tushunchalari.

Darsning asosiy bosqichlari

01

Guruhlarga ajratish

O'qituvchi sinfni 3 kishilik guruhlariga bo'lib, har bir o'quvchiga turli ekologik mavzularda maqola beradi: **chiqindilarni qayta ishlash, suvni tejash, havoni ifloslanishini kamaytirish.**

03

Ekspert guruhlari

Bir xil maqolani olgan o'quvchilar yig'ilib, ekologik muammoni chuqur muhokama qiladilar va asosiy g'oyalarni aniqlab, yechimlarni tahlil qiladilar.

02

Individual o'qish

Har bir o'quvchi o'z maqolasini ikki marta diqqat bilan o'qiydi va quyidagi savollarga javob izlaydi: **qaysi muammo yoritilgan, oqibatlari nima, qanday yechimlar taklif qilingan.**

04

Bilim almashish

O'quv guruhlari qayta yig'ilib, har bir o'quvchi o'z maqolasidagi ekologik ma'lumotlarni boshqalarga taqdim etadi va muhokama olib boradi.

Tanqidiy tahlil savollari



Muammo aniqlash

Maqolalar qanday ekologik muammolarni yoritmoqda va ular barqaror rivojlanish bilan qanday bog'liq?

Argumentlar baholash

Maqolalardagi argumentlar qanday? Ular ilmiy asoslangan va ishonchli dalillarga tayanadimi?

Manipulyatsiyalarni aniqlash

Faqat iqtisodiy manfaatlarni ta'kidlash, ekologik xavflarni e'tibordan chetda qoldirish kabi holatlar bormi?

Yechimlar samaradorligi

Taklif qilingan yechimlar ekologik barqarorlikni ta'minlashga qanchalik haqiqiy yordam beradi?

Baholash mezonlari va indikatorlar

Muammoni aniqlash

O'quvchilar ekologik muammoni to'g'ri va aniq aniqlay oldimi?
Muammoning ahamiyatini tushuna oldimi?

- Muammoning mohiyatini anglash
- Oqibatlarini baholash
- Muhitga ta'sirini tushunish

Tanqidiy tahlil

Dalillar va manipulyatsiyalarni ko'rsata olish, maqoladagi noto'g'ri yoki bir tomonlama ma'lumotlarni ajrata olish qobiliyati.

- Dalillarni baholash
- Manipulyatsiyalarni aniqlash
- Obyektiv fikr bildirish

Yechimlar baholash

Ekologik yechimlarni tanqidiy baholay olish va ularning samaradorligini real hayot bilan bog'lay olish ko'nikmalari.

- Yechimlarning amaliyoti
- Uzoq muddatli ta'sir
- Ijtimoiy foyda

Kengaytirish va keyingi qadamlar



Mustaqil faoliyat

- Boshqa manbalardan ekologik maqolalarni o'qib, taqqoslash
- Maktab hududidagi ekologik muammolar haqida kichik maqola yozish
- Mahalliy hokimiyat faoliyatini o'rganish

Amaliy loyihalar

O'quvchilar o'z maktabida chiqindi muammosi, suvni tejash yoki boshqa ekologik masalalar bo'yicha kichik tadqiqot o'tkazib, natijalarini sinf oldida taqdim etishlari mumkin.

**Bugun gazeta maqolalarida ekologiya haqida
qanday yangi narsalarni bilib oldingiz?**

Darsdan tashqari tadbirlar va barqarorlik

Ta'limiy tenglikni ta'minlash

Darsdan tashqari tadbirlar o'quvchilarga akademik bilimlardan tashqari ijtimoiy, xayriya, badiiy, sport yoki boshqa yo'nalishlarda iste'dod va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu tadbirlar orqali o'quvchilar sinfda kam qo'llaniladigan qobiliyatlarini namoyish etishi mumkin. Bu esa an'anaviy sinf faoliyatida unchalik faol bo'lmagan o'quvchilarga o'z kuchli tomonlarini ko'rsatish imkoniyatini yaratadi.



Maktab bog'lari

Barqaror qishloq xo'jaligi va ekologik sikllilikni o'rgatadi.



Ekofestivallar

Ijod orqali ekologik muammolarni tahlil qilish imkoniyati.

Xulosa: Barqaror kelajak uchun ta'lim

BRM pedagogikasi o'quvchilarni kelajakdagi murakkab muammolar bilan ishlashga tayyorlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi. Simulyatsiyalar, muhokamalar, muammolarni tahlil qilish va darsdan tashqari tadbirlar orqali o'quvchilar:

- Tanqidiy va tizimli fikrlashni o'rganadi
- Jamiyat va atrof-muhit uchun mas'uliyatni his qiladi
- Barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotda qo'llaydi
- Mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi

| Bugungi o'quvchilar - ertangi barqaror jamiyatning poydevori!





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI



Eko-madaniyat va
ekologik savodxonlikni
rivojlantirish

E'TIBORINGIZ UCHUN TASHAKKUR!



<https://linktr.ee/trmuz>



<https://trm.uz>



<https://www.facebook.com/trmuz>



https://www.youtube.com/@trm_uz



https://www.instagram.com/trm_uz/

